



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRINING
BUYRUG'I**

2024 yil. "23" yanvar

18-son

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining Davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi ichki nizomi hamda Davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko'rib chiquvchi komissiya tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuniga muvofiq, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ma'muriy-xo'jalik faoliyatida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishni tartibga solish, davlat xaridlariga oid shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va tegishli xulosalar taqdim etish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni bilan davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining ma'muriy-xo'jalik faoliyatida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi qisqa yo'riqnomalar 1-ilovaga;

Davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko'rib chiquvchi komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Komissiyaga:

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga qat'iy amal qilish;

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining ma'muriy-xo'jalik faoliyatida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlariga oid shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish, shikoyat mualliflariga asoslangan javoblar yo'llash;

kelib tushgan shikoyatlar asosida aavlat xaridlari bo'yicha qonun talablariga rioya etilmagan holatlar uchragan taqdirda, tegishli xulosalarni hamda mas'ul shaxslarga tegishli chora ko'riliishi bo'yicha takliflarni vazirlik rahbariyatiga kiritish;

amalga oshirilgan davlat xaridlari bo'yicha kelib tushgan shikoyatlar va ularning hal etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar vazirlik rahbariyatiga kiritib borish vazifalari yuklansin.

4. Buxgalteriya (E.Ermatov), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi (M.Zagrutdinov) Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi vazirligining ma’muriy-xo‘jalik faoliyatida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha Davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi ichki nizom hamda Davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibi to‘g‘risidagi buyruqni vazirlik rasmiy saytining ochiq ma’lumotlar sahifasiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Devonxona (G.Otaboyeva) mazkur buyruqni tarqatish ko‘rsatkichi asosida mutasaddi xodimlarga yetkazilishini ta’minlasin.

6. Ushbu buyruqning ijrosi nazorati vazir o‘rnbosari D.Adilov zimmasiga yuklansin.

Vazir v.v.b



Sh.Xidoyatov

**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi
vazirligining 2024-yil “_____”
yanvardagi “_____”-son buyrug‘iga
2-ilova**

**Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomma
(qisqacha)**

Umumiy qoidalar

Mazkur Yo‘riqnomma O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda — Qonun), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yo‘riqnomada Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning (keyingi o‘rinlarda - Nizom) umumiy bo‘limida ko‘zda tutilgan asosiy tushunchalardan foydalilaniladi.

Davlat xaridlarini (elektron, auksion vositasidagi, tanlash vositasidagi, tender o‘tkazish, hadli kelishuv asosidagi davlat xaridlari) o‘tkazishning umumiy shartlari

Elektron davlat xaridlarini o‘tkazishning umumiy shartlari Vazirlar Mahkamasining 276-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 3-bobida nazarda tutilgan shartlar asosida amalga oshiriladi.

Bunda, Elektron do‘kon orqali davlat xaridlari narxlar so‘rovi mexanizmidan foydalangan holda Qonunning 51-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Auksion vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 6-bobi va Nizomning 2-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq, Qonunning 52-moddasida belgilangan mezonlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Tanlash vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 7-bobi va Nizomning 3-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi, tanlash elektron shaklda o‘tkaziladi.

Tanlash vositasidagi davlat xaridi Qonunning 56-moddasida belgilangan shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Tanlashni o‘tkazishda xarid komissiyasi Qonunning 20 va 57-moddalarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

Tanlov savdolari (tender) vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 8-bobiga,

Nizomning 4-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Tanlov savdolari (tender) elektron shaklda o‘tkaziladi.

Tanlov savdolari (tender) vositasidagi davlat xaridi Qonunning 64-moddasida belgilangan shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Tanlov savdolari (tender)ni o‘tkazishda xarid komissiyasi Qonunning 20 va 65-moddalarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

Hadli kelishuv tartib-taomili ham mavjud bo‘lib, u orqali davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari Nizomning 5-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

Budget buyurtmachisi hadli kelishuv tartib-taomili orqali davlat xaridlarini amalga oshira olmaydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari Qonunning 71-moddasida belgilangan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat buyurtmachilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo‘lsa, ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Davlat buyurtmachisi ushbu paragrafda nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatlari turlaridan ham Qonun va Nizom talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (budget buyurtmachilar uchun olti ming) baravari miqdorigacha bo‘lgan shartnoma va shartnomaga oid qo‘srimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilmaydi.

Yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridi Qonunning 72-moddasida belgilangan hollarda amalga oshiriladi.

Yagona yetkazib beruvchilardan xaridni amalga oshirish uchun davlat buyurtmachilar yagona yetkazib beruvchilar reyestridan (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) foydalanadi.

Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo‘lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda davlat buyurtmachisi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to‘g‘risidagi axborot u tuzilgan paytdan

e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri vakolatli organ tomonidan maxsus axborot portalida yuritiladigan axborot resursidir.

Yagona yetkazib beruvchilar reyestri yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati va yagona yetkazib beruvchilar ro'yxatidan iboratdir.

Reyestrda kontragent mavjud bo'lmasa, davlat buyurtmachisi to'g'ridan-to'g'ri shartnomani tuzishga haqli emas.

Reyestrda hamma erkin foydalanishi mumkin.

Vakolatli organ tahlil o'tkazish va tegishli ma'lumotlarni yig'ish orqali:

bozorda muqobillari bo'lмаган texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) xo'jalik yurituvchi subyektlarni;

tegishli bozorda muqobillari bo'lмаган tovarlar (ishlarni, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan monopolist-korxonalarini;

tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy qimmatliklarning egalarini, shuningdek, ushbu qimmatliklarni davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlarini, kino fondlarini, fotosuratlar fondlarini va shunga o'xhash fondlarni to'ldirish uchun zarurligini aniqlaydi.

Nizomning 197-bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslar Reyestrda yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi ariza bilan vakolatli organga murojaat etishlari mumkin.

Reyestrda yagona yetkazib beruvchi sifatida kiritish haqidagi arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

xo'jalik yurituvchi subyekt haqida — yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatiga olinganligi haqidagi guvohnomaning sanasi va ro'yxatga olish raqami, jismoniy shaxs haqida — shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi tegishli ma'lumotlar;

nomi, texnik xususiyatlari, narxi ko'rsatilgan ishlab chiqarilayotgan (yetkazib berilayotgan) bozorda muqobillari bo'lмаган texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqida ma'lumot;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda xo'jalik yurituvchi subyektning tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrda mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;

madaniy qimmatliklarning tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyati haqidagi ma'lumotlar;

qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda mavjud bo'lgan litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlar haqidagi ma'lumotlar;

boshqa ma'lumotlar.

Vakolatli organ quyidagi asoslar bo'yicha Reyestrda kiritish haqidagi arizani

rad etishi mumkin:

Nizomning 199-bandida nazarda tutilgan hujjatlarning (ma'lumotlarni, axborotlarni) to'liq bo'limgan hajmda taqdim etilishi;

taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri va buzilgan ma'lumotlar aniqlanganligi;

hujjatlar ariza beruvchining nomidan harakat qilish vakolatiga ega bo'limgan shaxs tomonidan taqdim etilishi.

Vakolatli organ zarur hollarda bozorda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muqobili mavjudligini aniqlash uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarga:

bozorda muqobillari bo'limgan texnik jihatdan murakkab va noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi (yetkazib beruvchi) xo'jalik yurituvchi subyektlar haqidagi ma'lumotlarni;

tegishli bozorda muqobillari bo'limgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan monopolist-korxonalar haqidagi ma'lumotlarni;

madaniy qimmatliklarning tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga egaligini, shuningdek, ushbu qimmatliklarni davlatning muzey, axborot-kutubxona, arxiv fondlari, kino fondlari, fotosuratlar fondlari va shunga o'xshash fondlarni to'ldirish uchun zarurligini aniqlash uchun madaniy qimmatliklarning egalari haqidagi ma'lumotlarni yuboradi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar vakolatli organdan ma'lumotlarni olganlaridan so'ng besh ish kuni mobaynida o'zlarining axborot bazalaridagi va/yoki ochiq manbalardagi ma'lumotlardan foydalangan holda taqdim etilgan tovarning (ishni, xizmatning) bozorda muqobili mavjud emasligi haqidagi axborotni taqdim etadi.

Vakolatli organ davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida Reyestrga kiritish haqidagi arizani qanoatlantiradi yoki qanoatlantirishni rad etadi.

Ariza qanoatlantirilgan taqdirda, vakolatli organ xo'jalik yurituvchi subyektni yoki madaniy qimmatliklarning egasini yagona yetkazib beruvchi sifatida Reyestrga kiritadi.

Reyestrga o'zgartirish kiritish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tabiiy monopoliya subyektining Tabiiy monopoliya subyektlarining davlat reyestridan chiqarilishi;

xo'jalik yurituvchi subyekt tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning reyestridan chiqarilishi;

vakolatli organning xo'jalik yurituvchi subyektni Reyestrda chiqarish haqidagi xabarnomasi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan vakolat doirasida faqat

shu organlar yoki ularning tizimidagi tashkilotlar tomonidan ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko‘rsatilishi to‘xtatilishi;

sudning qonuniy kuchga kirgan xo‘jalik yurituvchi subyektni bankrot deb topish haqidagi hal qiluv qarori;

qonunchilikka muvofiq boshqa holatlar.

Davlat buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarning yagona reyestri

Shartnomalarning yagona reyestri vakolatli organ tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimidan foydalangan holda yuritiladi.

Shartnomalarning yagona reyestri elektron do‘kon, auksion, tanlash, tanlov savodalari (tender), hadli kelishuv natijalari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar, shu jumladan, yagona yetkazib beruvchidan amalga oshirilgan xaridlar yakunlari, shuningdek, qonunchilikka muvofiq tuzilgan boshqa davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha shakllantiriladi.

Elektron do‘kon, auksion, tanlash, tanlov savodalari (tender) va hadli kelishuv orqali tuzilgan shartnomalar davlat xaridlarining elektron tizimida ro‘yxatga olinganidan so‘ng avtomatik rejimda Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga kiritilgandan so‘ng avtomatik rejimda axborot shakllantiriladi va Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

Shartnomalarning yagona reyestriga Qonunning 47-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’lumotlar kiritiladi.

Shartnomalarning yagona reyestridagi axborot tanishib chiqish uchun bepul va ochiq bo‘lishi kerak.

Maxsus axborot portali va DMBAT o‘rtasidagi ma’lumotlar bazasi elektron hamkorligi orqali davlat buyurtmachilar bilan tuzilgan Shartnomalarning yagona reyestri bo‘yicha onlayn ma’lumot almashinuvi amalga oshiriladi.

Qaysi shartnomalar to‘g‘risidagi axborot Shartnomalarning yagona reyestriga kiritilmagan bo‘lsa, o‘sha shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi.

Yakunlovchi qoidalar

Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo‘yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, shikoyatlarni, nizo va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish hamda xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazorati qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo‘yicha tuzilgan shartnomaning quyidagi muhim shartlarini:

tovarni (ishni, xizmatni) o‘zgartirishga;

tovarning (ishning, xizmatning) sifati va turlarini o‘zgartirishga;

tovarning miqdori va bahosini oshirishga;

yetkazib berish muddatini uzaytirishga (bundan fors-major holatlar

mustasno);

amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qo‘srimcha ishlar va xizmatlar qiymatini shartnomaga bo‘yicha uning umumiy boshlang‘ich summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lgan summaga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalarning muhim shartlarini o‘zgartirish bo‘yicha ushbu shartnomalariga muvofiq qo‘srimcha kelishuv tuzilishi mumkin.

Davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining elektron tizimi operatori tomonidan xarid qilish tartib-taomiliga oid barcha hujjatlar belgilangan muddatlarda saqlanishi lozim.

Davlat buyurtmachilar qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shartnomalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilishi va shartnomalar bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklangan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun, shuningdek, maxsus axborot portaliga joylashtirilgan ma’lumotlarning, vakolatli davlat organlariga taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi hamda hujjatlarning qog‘oz va elektron shaklining o‘zaro muvofiqligiga javob beradi.

Mazkur Yo‘riqnomaga amal qilmaslik natijasida Vazirlar Mahkamasining 276-soni qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Mazkur Yo‘riqnomasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari, budget mablag‘lari hisobidan faoliyat yurituvchi vazirlik quyi tizim tashkilotlari uchun qo‘llaniladi.

Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vazirligining
2024-yil “___” ____dagi
_____-son buyrug‘iga
2-ilova

Davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi komissiya tarkibi

Komissiya raisi

1. D.Adilov - Vazir o‘rinbosari

Komissiya a’zolari

- | | |
|------------------|--|
| 2. A.Azizov | - Iqtisodiy islohotlar bo‘limi boshlig‘i |
| 3. E.Ermatov | - Bosh buxgalter |
| 4. I.Mamanov | - Ichki audit bo‘limi boshlig‘i |
| 5. M.Zagrutdinov | - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi direktori |
| 6. Vakant | - Xo‘jalik ishlari bo‘limi boshlig‘i |

Izohlar:

Komissiya a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu vazifaga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyani bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Komissiya o‘ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda, zaruriy holda, tegishli mutaxassislarni jalg qilish huquqiga ega.

Tarqatish ko‘rsatkichi:

1. Vazir o‘rinbosari
2. Iqtisodiy islohotlar bo‘limi
3. Ichki audit bo‘limi
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi
5. Xo‘jalik ishlari bo‘limi
6. Markaziy buxgalteriya